

XXI ASR KO'NIKALARINI OMMALASHTIRISHDA TALABALARNING ROLI

Jalolova Yulduz Mukhiddin kizi

Jizzakh State Pedagogical Institute Department of Pedagogy and Psychology, Tutor

Azimova Dilnoza Faxriddin kizi

Jizzakh State Pedagogical University Faculty of Pedagogy and Psychology
Second Course of Masters degree.

Ernazarov Sanjar Nurali o'g'li

Jizzakh State Pedagogical University Faculty of Pedagogy and Psychology
Second-level student of sign language pedagogy.

Amrullayeva Havasgul Amrulla qizi

Teacher of the 16th school of Jizzakh city

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7269407>

Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta etamiz. Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz.

Sh.Mirziyoev

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan o'qitishning noan'anaviy usullari va innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda ularni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish o'z samarasini bermoqda. Talabalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv jarayonida qo'llash uchun malakalarini oshirish kerak.

Kalit so'zlar: talaba, pedagog, texnologiya, ta'lim, ko'mikma.

ANNOTATION

Non-traditional methods of teaching and innovative pedagogical technologies used in the educational process today, as well as improving the quality of education through their application, are bearing fruit. It is necessary to equip students with innovative pedagogical technologies and interactive methods and improve their skills to apply the acquired knowledge in the educational process.

Key words: student, pedagogue, technology, education, support.

АННОТАЦИЯ

Нетрадиционные методы обучения и инновационные педагогические технологии, применяемые в образовательном процессе сегодня, а также повышение качества образования за счет их применения, приносят свои

плоды. Необходимо вооружить студентов инновационными педагогическими технологиями и интерактивными методами и повысить их навыки применения полученных знаний в образовательном процессе.

Ключевые слова: студент, педагог, технология, обучение, поддержка.

Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, yurtboshimiz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash har bir ta'lim beruvchining eng muhim vazifasi hisoblanib, bu o'z navbatida har bir talabadan yuksak bilim, ulkan mahorat, zamonaviy ilm-fanning yutuqlaridan xabardor bo'lishni talab etadi. Talabalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv jarayonida qo'llash uchun malakalarini oshirib borish kerak.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan o'qitishning noan'anaviy usullari va innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda ularni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish o'z samarasini bermoqda.

XXI asr ko'nikma va malakalari. Ular nimani taqozo etadi? Ta'lim olish va innovatsiyalarni qo'llash uchun kerak bo'ladigan XXI asr ko'nikma va malakalari Quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ijodiy yondashuvlik va novatorlik:

- Ish jarayonida originallik hamda yaratuvchanlikni namoyon etish;
- Yangi g'oyalarni rivojlantirish, qo'llash va ularni boshqalarga yetkazish, tarqatish;
- Yangi va istiqbolli dasturlarga tayyorgarlik va ochiqlik;
- Innovatsiyalar amalga oshirilayotgan sohadagi ahamiyatli ijodiy g'oyalarni joriy etish;

Tanqidiy fikrlash hamda muammolarni hal qila olish qobiliyati:

- Sog'lom fikrni hurmat qilgan holda qo'llash;
- Murakkab vaziyatlarda qaror qabul qila olish;
- Tizimlardagi o'zaro aloqadorlikni anglash;
- Eng ma'qul yechimlarga olib keladigan hamda turli qarashlarni aniqlashtiradigan ahamiyatli savollarni qo'ya olish;
- Masalalarni yechish va savollarga javob olish uchun zarur axborotlarni strukturalash, tahlil qilish va umumlashtirish;

Kommunikabellik (chiqishuvchanlik) va hamkorlik

- Fikr va g'oyalarning yozma va og'zaki tarzda aniq va samarali ifodasi;
- Turli guruhlar bilan samarali ishlash qobiliyatini namoyon etish;
- Umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi egiluvchanlik va murosasizlik;

O'z harakat-amallari davomida ko'pchilikning qiziqishlarini hurmat qilish

“XXI asr yoshlarini XX asr metodikalari bilan o'qitib bo'lmaydi” Xabaringiz bor,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7-dekabr 2021-yildagi 741-son Qaroriga muvofiq, Prezident ta'lim muassasalari agentligi huzurida Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil etilgan. Mazkur Markazning faoliyat yo'nalishlari va rejalashtirilgan loyihalar haqidagi savollar bilan Markaz mutaxassislariga murojaat qildik.

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazining asosiy maqsad va vazifalari nimadan iborat? Sifatli ta'lim jarayonini tashkil etish esa malakali pedagog-kadrlardan boshlanadi. Zero, maktab eng zamonaviy texnik jihozlar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlangan bo'lsayu, o'qituvchining malakasi yetarli darajada bo'lmasa, ko'zlangan natijaga erishish imkonsiz.

Oliy ta'lim muassasasida, ta'lim dargohlarida ta'lim olayotgan talabalar hali yetarlicha ko'nikmaga, tajribabaga ega bo'lishmaydi. Talaba avvalo tajriba-amaliyot orqali o'z ko'nikmalarini oshirib boradi. Talaba o'z faoliyati davomida duch keladigan muammolarga yechim topishda metodik ko'makka ehtiyoj tug'iladi. Bunday muammolarga yechim topish maqsadida Pedagog kadrlarning malakasini oshirishga mo'ljallangan Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil etilgan. Talaba jahon bozorida raqobatlasha oladigan kadr bo'lib tarbiyalanishi uchun zamonaviy fikrlashi, o'z ustida doimiy ishlab borishi talab etiladi. Zero, 21-asr yoshlarini 20-asr ta'lim metodikalari orqali o'qitib bo'lmaydi. Jamiyatning boshqa sohalari singari dars o'tish metodikasi ham doimiy yangilanishga, rivojlanishga muhtoj. Shunday ekan, har bir talaba zamonaviy pedagogika asoslarini bilishi va uni o'quv jarayonlariga tadbiiq eta olishi shart. Ta'lim sohasining eng muhim qismlaridan yana biri – bu to'g'ri tanlangan dastur va baholash tizimi hisoblanadi. Chunki, o'quvchining bilimi dasturda belgilangan ta'limiy maqsadlar asosida baholanishi kerak.

Hozirda ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan test tizimi talabaning real bilimi va ko'nikmasini ko'rsatib bera olmaydi. U faqatgina talabaning ma'lumotni eslab qolish qobiliyatiga baho berishi mumkin. Ammo, hozirgi texnologiyalar asrida ma'lumotlarni xotirada saqlab qolishga katta ehtiyoj yo'q – bu vazifalarni kompyuterlar va internet bajaradi. O'quvchidan 21-asrda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari talab etilmoqda. XXI asr innovatsion texnologiyalar 100 yilligiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Dunyoning yirik, qudratli, har jihatdan rivojlangan mamlakatlari o'rtasida ilm-fan va texnologiyalar jabhasida ham beayov kurash bormoqda ilmga va bunda ilmga chanqoq talaba yoshlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki biror davlatni yuksak cho'qqilarga olib chiqish uchun avvalo, yoshlarni ilmiy qilish ularga qulay shart sharoit yaratib berish kerak. Innovatsiyalar asrida dunyoning istalgan burchagidagi tengdoshimiz bilan fikr almashishimiz, o'zimizga kerakli

bo'lgan tajribalarni o'rgana olishimiz, hattoki yaratilayotgan kashfiyotlardan, yangliklardan boxabar bo'lishimiz mumkin va bu biz talabalar uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunday imkoniyatlar yaratilgan davrda talabalarning ilm olishi, innovatsiya yaratishi, o'z vatanini rivojlantirish uchun o'z hissasini qo'shishiga hech qanday to'siq qolmaganini anglab yetgan shijoatli talabalar har sohada o'z iqtidorlarini ko'rsatishga, malakalarini, tajribalarini oshirish uchun tinmay qilayotgan harakatlaridan, o'qib izlanishlaridan ham XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda ularning ro'li naqadar muhim ekanini bilib olsak bo'ladi. Innovatsiya faqatgina qog'ozlarda qolib ketmasligi uchun katta investitsiya zarur albatta talaba yoshlarda bunday mablag' bo'lmasligi tabiiy hol. Shunday kashfiyotlar borki, ular xalq uchun juda zarur ammo, yetarli investitsiya yo'qligi sababli ular shunchaki chetda qolib ketadi yoki chet davlatdan investitsiya taklif qilinsa undan o'sha davlat foyda ko'radi. Bu talabaning o'z davlatida investitsiya kiritilib, yaratilsa aholi iqtisodiyoti, davlat qanchalar yuksalishini bir tasavvur qilib ko'ring.

REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T.: O‘zbekiston-2016.
2. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov. I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida”gi Qonuni // Oliy ta’lim: Meyoriy – huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: 2004. – B. 16-17.
5. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education Enhancing Academic Practice 2008, 544 p
6. Getting Started: Idea Book on Pedagogy for New Faculty. Faculty Teaching